


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**





**O‘RGANILAYOTGAN MINTAQA (MAMLAKAT) ADABIYOTI
(ERON) FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi: 230 000 - Tillar
Ta’lim yo‘nalishi: 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti
(sharq tillari bilan)

Toshkent - 2025

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  Mirzaxmedova X.V.

Arabshunoslik oliy maktabi boshlig'i:  Nuriddinov N.N.

ARM boshlig'i:  Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi O'MA15-616	O'quv yili 2027-2028	Semestr 5,6,	ECTS – Kreditlar 8,8	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 8,8	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) adabiyoti (Eron)	192	288	480
2	<p align="center">1. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi: talabaga “Eron adabiyoti” bo'yicha bilim berish bo'lib, unda badiiy asar mohiyati va ijod psixologiyasi, adabiy tur va janrlar, badiiy asarning shakli va mazmuni, poetik nutq, uslub va shu kabi bir qator nazariy qonuniyatlarni aniq badiiy asarlarga tatbiq etgan holda o'rgatishdan iboratdir.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Fanning vazifasi arab adabiyotining tarkibiy qismlari, uning badiiy so'z san'atini o'rganuvchi fan ekanligi; - Eron mamlakatlari adabiyotining qadimdan hozirgi davrgacha bo'lgan tarixi; - Eron mamlakatlari adabiyotshunosligining maktab va yo'nalishlari; - Badiiy adabiyotning vazifalari va badiiy tafakkurning voqelikka munosabati; - Eron mamlakatlari adabiyotida adabiy metod, janr va uslublarning munozarali masalalari; - badiiy adabiyotda, xususan, Eron adabiyotida qo'llaniladigan badiiy tasvir vositalari, badiiy san'atlar, portretlar; - Eron adabiyotining jahon adabiyotida tutgan o'rni va uning bashariyat taraqqiyotidagi ulushi haqida tasavvurga ega bo'lishi <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi (Leiden University QS 119, THE 73) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><u>https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/courses/127638/classical-persian</u></p> <p align="center">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p align="center">H.1 Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p align="center">QADIM VA ILK O'RTA ASR ADABIYOTI</p> <p align="center">1-mavzu. Fors folklorining o'rganilishi</p> <p>Fors folklorining janrlar tarkibi Maqol, matal, naql va hikmatli so'zlardan maxsus to'plamlar tuzish an'anasi. Sahnaviy janrlar rivoji.</p> <p align="center">2-mavzu. Qadimgi forsiy tillardagi toshbitiklar</p>			

Buyuk Kir, Doro toshbitiklari, Sherozdagi toshbitiklar, Ardasher I va boshqa Ahamoniy shohlardan qolgan toshbitiklar, ularning mazmun mohiyati.

3-mavzu. “Avesto” – Eron xalqlari tarixining qadimgi yodgorligi
“Avesto” kitobining tuzilishi, mazmuni, undagi madhlar, uning o‘rganilishi.

4-mavzu. Qadimgi eron afsonalari va dostonlari
Eron xalq afsonalari va dostonlarining tarixi, ularning badiiyati.

5-mavzu. Eron ertaklari turlari
Eron xalq ertaklari, ularning tasnifi. Sehrli ertaklar badiiyati

6-mavzu. Eron xalq qo‘shiqlari.
Fors folklorida marosim qo‘shiqlari, diniy qo‘shiqlar, mehnat qo‘shiqlari, marsiyalar va madhiyalar, Sada bayrami qo‘shiqlari.

7-mavzu. Fors xalq dubaytilari
Kichik she‘riy janr – dubayrilar va ularning mavzular ko‘lami.

8-mavzu. Zarbulmasallar
Zarbulmasallar – xalq donishmandligi namunasi sifatida.

9-mavzu. Fors tilidagi she‘riyatning shakllanishi va ilk rivoji. “Rudakiy asri she‘riyati

Nasr ibn Ahmad va Ismoil Somoniylar davrida Samarqand va Buxoroda fors she‘riyat maktabi shakllanishi. Rudakiy Samarqandiy ijodi. “Dunyoviy adabiyot” masalasi va uning mohiyatini tushunib yetish. Rudakiy zamondoshlari. Shahid Balxiy, Abu Shukur Balxiy, Kasoiy Marvaziy ijodi va boshqalar ijodi.

O‘RTA ASR ADABIYOTI

10-mavzu. Fors mumtoz adabiyotida uslub masalasi
Klassik fors adabiyotining uslublari. Uslublarning tafovutlari va xususiyatlari.

11-mavzu. Xuroson uslubi va uning namoyandalari
Fors she‘riyatidagi IX-XI asrlarda Seiston va katta Xuroson hududlarida keng tarqalgan Xuroson uslubi hamda uning namoyandalari ijodi.

12-mavzu. G‘azal janri rivoji
Mas‘ud Sa‘d Salmon, Nosir Xusrav va Sanoiy ijodi va ularning asarlari. Irfoniy adabiyot va uning mohiyati.

13-mavzu. Firdavsiy Tusiy vauning “Shohnoma” asari
Dunyoning eng yirik asari “Shohnoma” va uning jahon adabiyotida tutgan o‘mi.

14-mavzu. Iroq uslubi va uning namoyandalari
Saljuqiylar davri she‘riyati, Iroq uslubi xususiyatlari hamda ushbu uslubning yirik namoyandalari ijodi.

15-mavzu. Xoqoniy Shirvoniy va irfoniy she‘riyat
She‘riyatga yangi nafas va yangi uslub olib kirgan ijodkor Xoqoniy Shirvoniyning qasidalari, ruboiylari, qit‘alari va g‘azallari.

16-mavzu. Jaloliddin Rumiy – shoir va mutafakkir
Rumiyning “Divone Kabir”, “Masnaviyi ma‘naviy”, “Fihi mo fihi” asarlari va ularning Sharq va G‘arb adabiyotiga ko‘rsatgan ta‘siri.

17-mavzu. Nizomiy Ganjaviy va uning “Xamsa”si

Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa”si, uning dostonlari ichki qurilish va mazmun yo‘nalishiga ko‘ra tasavvuf ruhidagi pandnomalarga qiyoslanishi.

18-mavzu. Sa‘diy Sheroziy ijodi. Uning “Bo‘ston” va “Guliston” asarlari

Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy hayoti va ijodi, uning g‘azal formasini mustaqil janr darajasiga ko‘tarishdagi xizmatlari. “Bo‘ston” va “Guliston” asarlari tavsifi

19-mavzu. Hofiz Sheroziy va uning “Devon”i

Hofiz Sheroziy ijodi - g‘azal janrining cho‘qqisi.

20-mavzu. Farididdin Attor va uning asarlari

Mutasavvuf shoir Farididdin Muhammad Abu Bakr Ibrohim Attor va uning “Mantiq ut-tayr”, “Tazkirat ul-avliyo”, “Asromoma”, “Musibatnoma” asarlari.

22-mavzu. Fors adabiyotida hind uslubi

XVI asr XVIII asrning birinchi choragida fors adabiyotida hind uslubi xususiyatlari. Ushbu uslubdagi asosiy tamoyillar, shakl va mazmun munosabati.

21-mavzu. Zebunniso Begim ijodi. Mirzo Bedil Dehlaviy ijodi

Hind uslubida ijod etgan boburiy malika Zebunniso Begim Maxfiy ijodi. Sharq adabiyotida “Abu Maoniy” – “Ma‘nolar otasi” deb nom qozongan Mirzo Abdulqodir Bedil ijodi, uning “Kulliyot”i.

22-mavzu. Bozgasht adabiyoti va uning namoyandalari

XVIII asrning o‘rtalarida fors adabiyotida “Bozgasht” adabiy uslubi, uning asoschisi Mushtoq Isfahoniy ijodi va boshqa yirik namoyandalari ijodi.

ZAMONAVIY DAVR ADABIYOTI

23-mavzu. Yangi davr fors adabiyotida ma‘rifatparvarlik rivoji

Ma‘rifatchilik ruhidagi adabiyotning ravnaq topishida matbuotning va tarjima adabiyotining o‘rni, yangi tipdagi dorulfununning ochilishi. Ma‘rifatchilik, didaktik va tanqidiy realizm unsurlarining qorishiq, uyg‘un tarzda ifodalanishi. (Mirzoda Ishaqiy, Malik ush-shuaro Bahor)

24-mavzu. Publitsikaning badiiy adabiyot rivojidagi o‘rni

Ma‘rifatparvarlar va publisistlar ijodi. Ilk davriy nashrlar, Mirzo Solih Sheroziy faoliyati, “Vaqoyeye ettefoqiye” gazetasi.

25-mavzu. Iraj Mirzo she‘riyati

Iraj Mirzo – taraqqiyparvar shoir-islohotchi, ayollar ozodligi kiuchisi.

26-mavzu. Parvin Ettesomiy ijodi

Tanqidiy va siyosiy mavzularda qalam tebratgan shoira Parvin Ettesomiy ijodi.

27-mavzu. Yangi fors adabiyotida hikoya janri rivoji

G‘arb adabiyotidan tarjimalar, hikoya janrining fors adabiyotida vujudga kelish omillari, Muhammad Ali Jamolzoda, Sodiq Hidoyat, Bo‘zo‘rg Alaviy ijodiy faoliyati.

28-mavzu. Ilk tarixiy romanlarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima

Eron romannavislari tarixi. Romanlarda aks etgan kompozitsion vositalar. Badiiy to‘qimaning romanlarda aks etishi. Mirzo Fathali Oxundzoda va uning “Aldabgan yulduzlar” romani.

29-mavzu. Ilk ijtimoiy romanlar

Murtazo Mushfiq Kozimiy va uning "Qo'rqinchli Tehron" romani, Muhammad Hijoziyning "Zebo" romani.

30-mavzu. Fors adabiyotida "Yangi she'r"

Nimo Yushij fors adabiyotida "yangi she'r" otasi. Uning manzumasi ilk "yangi she'r" sifatida. Yangi she'riyat asoslari. Nimongan izdoshlari.

31-mavzu. Nimongan keying she'riyat

She're nimoiy. Uning namoyandalari ijodi. Mehdi Axavone Soles, So'hrob Sepehriy, Fo 'rug ' Farruxzod ijodi.

32-mavzu. Fors adabiyotida oq she'r

Oq she'r yoki erkin she'r, Ahmadrizo Ahmadiy ijodi.

33-mavzu. XX asr ikkinchi yarmi fors adabiyotida nasriy janrlar rivoji

XX asr 50-70-yillar hikoyachiligi. Jalol ole-Ahmad, Ahmad Mahmud, Simin Doneshvarlar ijodi.

34-mavzu. Fors adabiyotida satira va yumor

Xusrav Shohoni, Sodiq Chubak, Faridun To'no'kebo'niy, Nodir Ibrohimiy, Kayumars Soberiy (Gul Og'a) ijodi.

ENG ZAMONAVIY DAVR ADABIYOTI

35-mavzu. XX asr ikkinchi yarmi Eron adabiyoti taraqqiyoti

"Oq inqilob", nasr rivoji, yirik romannavislar ijodi.

Ibrohim Guliston, Simin Doneshvar, Iraj Pezeshkzod, Hushang Gulshiriylar ijodi

36-mavzu. Mahmud Davlatobodiyning "Kelidar" romani

Ikkinchi jahon urushidan keyingi ijtimoiy-siyosiy hayot, Eronda yashovchi kurd oilasi haqidagi 10 jilddan iborat roman badiiyati bilan tanishish.

37-mavzu. Jamol Mirsodiqiy ijodi

Tanqidchi, nasrnavis Jamol Mirsodiqiyning ijod yo 'li va uning "Uzun tun" romani.

38-mavzu. Iraj Pezeshkzod ijodi

Diplomat, yozuvchi Iraj Pezeshkzodning ijodiy faoliyati hamda "Tog'ajon Napoleon" romani

39-mavzu. Simin Doneshvar ijodi

Tarjimon va fors adabiyotida ilk ayol romannavis Simin Doneshvar ijodi va uning "Savushun" romani

40-mavzu. XX asr oxiri va XXI asr arafasida Eron adabiyotidagi asosiy nasriy janrlar

Bu davrda yetakchi janrlar roman, hikoya janrlari bo'lib, mazkur janrlarning xususiyatlari va ijodkorlari.

41-mavzu. Inqilob davri adabiyoti

Fors adabiyotining ajralmas qismi inqilob davri adabiyoti, uning xususiyatlari, eng yorqin namoyandalari ijodi. Muhammad Rizo Sarshor, Muhammadrizo Bayramiy

42-mavzu. Muhojirlikdagi fors adabiyoti

Fors adabiyotida muhojirlik tarixi, sabablari va bu adabiyotning asosiy namoyandalari. Shahrnush Porsipur va Mashhid Amirshohiy ijodi

46-mavzu. Inqilob davri shoirlari ijodi

Hamid Sabzavoriy, Mehrdod Avesto, Nasrulloh Mardoniy, Hasan Husayniny, Qaysar Aminpur ijodi

47-mavzu. “ادبيات جنگ تحمیلی” (“Majburiy jang adabiyoti”)

XX asr 80-yillari Erondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Eron-Iroq urushining adabiyotga ta’siri. Butun dunyo tarixida eng uzoq davom etgan hamda katta yo‘qotishlarga sabab bo‘lgan ikki davlat Eron va Iroqning sakkiz yillik urushi davridagi adabiy jarayonlar. Sharq adabiyotida “Abu Maoniy” – “Ma’nolar otasi” deb nom qozongan Mirzo Abdulqodir Bedil ijodi, uning “Kulliyot”i.

48-mavzu. Majburiy jang adabiyoti shoirlari

Sepide koshoniy, Ahmad Aziziy, Muhammad Rizo Abdulmalikiyon. Farid Tahmasbiy, Afshin Muqaddamlar ijodi

49-mavzu. Eron bolalar adabiyoti rivoji

Bolalar adabiyotining tarixi, shakllanishi va taraqqiyot omillari, uning namoyandalari ijodi. Samad Behrangiy ijodi. Samad Behrangiy va uning “Kichkina qora baliqcha” asari, undagi ramziylik.

II. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

QADIMGI VA ILK O‘RTA ASR ADABIYOTI

1. Fors folklorining janrlar tarkibi. Maqol, matal, hikmatlar
2. Rustam (Tahamtan) haqida turkum dostonlar. “Hazor afsona”
3. “25 doston boston” to‘plamidagi ertaklar.
4. To‘y qo‘shiqlari, ro‘zaxonlik qo‘shiqlari, ta’ziye, olovga hamd qo‘shiqlari.
5. Ishqiy mavzudagi va pandnoma dubaytilari.
6. “Zend Avesto” – “Avesto”ga tafsir, “Got” – madhiyalar
7. Sheroz shahridagi toshlarga bitilgan qadimgi yozuvlar.
8. Islom dini fathidan keying davr mintaqa adabiyoti.
9. Somoniy davri saroy she‘riyati
10. Rudakiyning “Modare mey” qasidasi badiiyati
11. Unsuriy ijodi
12. Farruxiy va Manuchehriy qasidaları

O‘RTA ASR ADABIYOTI

13. Malik ush-shuaro Bahorning “Sabkshenosi”, Natalya Prigarinaning ilmiy asari
14. Xuroson uslubi xususiyatlari.
15. Sanoiy g‘azallari
16. “Shohnoma” dostonidagi “Rustam va Suhrob” qassasi
17. Saljuqiylar davri fors adabiyoti xususiyatlari. Iroq uslubi
18. Xoqoniy Shirvoniylar qasidaları.
19. “Divone Kabir”dagi ruboiylar mazmun mohiyati.

20. Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostoni muqaddimasi.
21. Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston" asari tahlili.
22. Boburiylar davri va Zebuniso begim rubiylari
23. Bedil g'azallari.
24. Hotif Isfahoniy ijodi.

YANGI DAVR ADABIYOTI

25. Amir Kabir-fors ma'rifatparvarlari otasi. Ilk gazeta nashri va uning faoliyati
26. Iraj Mirzo she'riyati tahlili
27. Parvin Ettesomiy she'rlari
28. Jamolzodaning "Kabobe g'oz" hikoyasi tahlili
29. Mirzo Fathali Oxundzoda ijodi.
30. Mushfiq Kozimiyning "Qo'rqinchli Tehron" romani.
31. Nimo Yushijning "Afsona" dostoni yangi she'r namunasi
32. Fo'rug' Farruxzod she'riyati
33. Xusrav Shohoniy ijodi va uning satirik-yumoristik hikoyalari.

ZAMONAVIY DAVR ADABIYOTI

34. Jalol ole Ahmadning "G'arbparastlik" asari
35. Hushang Gulshiriyning «Shahzoda Ehtejob»romani.
36. Jamol Mirsodiqiyning "ته آدمی، نه صدایی" hikoyalar to'plami
37. Simin Doneshvar ning "سووشون" romani
38. Inqilob davri va Eron-Iroq urushi davri adabiyoti
39. Islom inqilobining fors adabiyotiga ta'siri va Roziya Tujjor hikoyalari
40. Muhammad Rizo Bayramiyning "Sahro kuzi" hikoyalar to'plami
41. Qaysar Aminurning qisqa she'rlari
42. Muhammad Rizo sarshorning "Xayr, birodar" asari.
43. Ma'suma Obodning "Men tirikman" romani
44. Amuzoda Xaliliy hikoyalari
45. Samad Behrangiyning "Lavlagi sotuvchi bola", "Yulduz va qarg'alar", "Muhabbat afsonasi" asarlari
46. Farhod Hasanzodaning "Meni Zebo deb chaqir" asari.
47. Vajihe Somoniyningning «Oxirgi bekat», «Yomg'ir ostida» hikoyalari.
48. "Ham olma, ham yulduz", "To'kilayotgan gul", "Yetti band", "Vatanga safar" hikoyalari.
49. "Qo'shnilar", "Bir ayolning hayoti", "Dastali finjon", "Dog'lar" hikoyalari
50. Tohira Alaviyning modernistik hikoyalari
51. Bilqis Sulaymoniyning "بازی آخر بانو" romani
52. Yevropa va Amerikadagi fors adabiyoti rivoji
53. Shahrnush Porsipurning "طویا و معنای شب" romani
54. Mashhid Amirshohiyning "سار بی بی خاتم" "اده" "سگها" hikoyalari

32. Rumiy ijodida falsafiy she'riyat
33. Xoqoniy ijodida xamriyot janri
34. "Hazor afsona" ertaklarining uslubiy xususiyatlari
35. "Dubayti" larning kompozitsiyasi va syujet qurilishi
36. Mushfiq Kozimiy va A. Qodiriy ijodini qiyosiy tahlil qilish
37. Eronda "Yangi she'r" vakillari ijodi
38. XX asr oxirida yangi nasriy shakllarning shakllanishi
39. Bo'zo'rg Alaviy ijodida avtobiografik janr
40. Ahmad Mahmud asarlarini badiiy tahlil qilish
41. Roziya Tujjor hikoyanavisligi va lirikasi
42. Eronda modernizm adabiy oqimining o'ziga xos xususiyatlari
43. Noder Noderpur ijodi
44. Samad Behrangiy va Amuzoda Xaliliy ijodi
45. Fors bolalar va o'smirlar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari
46. XXI asr fors adabiyotida ayollar ijodi
47. Amuzoda Xaliliy ijodida ijtimoiy mavzu
48. Bilqis Sulaymoniy ijodidi xususiyatlari
49. Juda qisqa hikoya janrining xususiyatlari

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:

- darsliklar va o'quv qo'llanmalarining mavzularini o'rganib chiqish;
- Ibrat farzandlari platformasidan mustaqil ta'lim doirasida samarali foydalanish;
- tarqatma material asosida alohida ma'ruza mavzularini o'zlashtirish;
- maxsus ilmiy adabiyot asosida mavzular ustida ishlash;
- o'quv-ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan bog'liq mavzularni chuqur o'rganish;
- turli mavzularga doir adabiyotni o'qish (uy o'qishi /domashneye chteniye);
- ta'lim olishning faol va muammoli usullari qo'llangan o'quv mashqlarni bajarish;
- taqdim etilayotgan mavzu bo'yicha referat, esse, maqola va testlar tayyorlash;
- mavzu bo'yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash;
- ilmiy ma'ruza tayyorlash va taqdimot qilish.

V. "O'rganilayotgan mintaq (mamlakat) adabiyoti (Eron)" fanidan kurs ishlarining namunaviy mavzulari:

- Eron adabiyoti klassiklari asarlarini tarjima va tahlil qilish.
- Mumtoz dariyazabon fors-tojik adabiyoti janrlari va ular poetikasi.
- Forsiyazabon folklor janrlari va poetikasi.
- Folklor namunalarini tarjima va tahlil qilish.

	<ul style="list-style-type: none"> • Ilk ma'rifatparvar shoirlar ijodidan namunalar. • XX asr 50-yillar adabiyotida ma'rifatparvarlik g'oyalari. • Hozirgi zamon eron yozuvchilari nasrining janr xususiyatlari va mazmuni. • Eron adabiyoti namoyandalari asarlarini tarjima va tahlil qilish. • Ilk ma'rifatparvar shoirlar ijodidan namunalar. • Firdavsiy ijodida an'anaviy badiiy tasvir vositalarining ifodasi. • Jaloliddin Rumiy hikoyalarida hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari. • Farxod Xasanxod asarlarida obrazlar tizimi. • Ali Shariatiy hikoyalarida drammatizmning ustuvorligi. • Eron dramaturgalari ijodi. • Bahrom Bayoziy hikoyalarining obrazlar tizimi. • Eron hajnavislari • Muhammadrizo Bayramiy asarlarining badiiy tasvir va uslub masalalari. • Eron adabiyotida qadimgi yozma yodgorliklar. • Zuyo Pirzod hikoyalari <p>* <i>Izoh: Mustaqil ta'lim va kurs ishi mavzulari fan doirasida o'zgarishi mumkin</i></p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • badiiy adabiyotning mohiyati, uning jamiyatdagi o'rni va vazifalari to'g'risida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • badiiy adabiyotni san'atga dohil etuvchi obrazlilik va obraz tushunchalarini bilishi va ulardan foydalana olishi <i>malakalariga ega bo'lishi</i>; • badiiy asar tuzilishi, uning shakl va mazmun tomonlari, badiiy asar syujeti, kompozitsiyasi, badiiy til, inson obrazini yaratish yo'llari va vositalari, adabiy jarayon, badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, adabiy tur va janrlar, uslub va metod tushunchalari, badiiy adabiyotdagi turli oqim va yo'nalishlar bo'yicha echimlar qabul qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>

- Ilk ma'rifatparvar shoirlar ijodidan namunalalar.
- XX asr 50-yillar adabiyotida ma'rifatparvarlik g'oyalari.
- Hozirgi zamon eron yozuvchilari nasrining janr xususiyatlari va mazmuni.
- Eron adabiyoti namoyandalari asarlarini tarjima va tahlil qilish.
- Ilk ma'rifatparvar shoirlar ijodidan namunalalar.
- Firdavsiy ijodida an'anaviy badiiy tasvir vositalarining ifodasi.
- Jaloliddin Rumi hikoyalari hayotni badiiy aks ettirish tamoyillari.
- Farhod Xasanxod asarlarida obrazlar tizimi.
- Ali Shariaty hikoyalari dramatzmning ustuvorligi.
- Eron dramaturgalari ijodi.
- Bahrom Bayoziy hikoyalari obrazlar tizimi.
- Eron hajnavislari
- Muhammadrizo Bayramiy asarlarining badiiy tasvir va uslub masalalari.
- Eron adabiyotida qadimgi yozma yodgorliklar.
- Zuyo Pirzod hikoyalari

* *Izoh: Mustaqil ta'lim va kurs ishi mavzulari fan doirasida o'zgarishi mumkin*

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- badiiy adabiyotning mohiyati, uning jamiyatdagi o'rni va vazifalari to'g'risida *tasavvur va bilimga ega bo'lish*;
- badiiy adabiyotni san'atga dohil etuvchi obrazlilik va obraz tushunchalarini bilishi va ulardan foydalana olishi *malakalariga ega bo'lishi*;
- badiiy asar tuzilishi, uning shakl va mazmun tomonlari, badiiy asar syujeti, kompozitsiyasi, badiiy til, inson obrazini yaratish yo'llari va vositalari, adabiy jarayon, badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, adabiy tur va janrlar, uslub va metod tushunchalari, badiiy adabiyotdagi turli oqim va yo'nalishlar bo'yicha echimlar qabul qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishlash.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar:

- ✓1. Mannanov A., Imomnazarov M. Fors adabiyoti. Toshkent, 2016
- ✓1. Shomuhamedov Sh. Mumtoz fors adabiyoti (X-XV asrlar). O'quv qo'llanma. Toshkent, 2011
- ✓2. Yuldasheva S., Sotiboldiyeva S. Eron adabiyoti. (XVI asr va XX asrning 50- yillari). O'quv qo'llanma. Toshkent, 2013.
- ✓3. Турдиева О. Хозирги замон эрон хикоячилиги: монография. Тошкент. – 2015
- ✓4. M.U.Mamatoxunova, D.A.Yusupova. Hozirgi zamon Eron adabiyoti (Zamonaviy Eron she'riyati misolida). O'quv qo'llanma. Toshkent, 2020.
- ✓5. M.U.Mamatoxunova, D.A.Yusupova. Eron dramaturgiyasi tarixi va taraqqiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2021.
- ✓6. D.A.Yusupova. Siyovush Kasroi va XX asr zamonaviy fors she'riyati. Monografiya. Toshkent, 2020
- ✓7. D.A.Yusupova. Zamonaviy Eron she'riyati. O'quv qo'llanma- xrestomatiya. Toshkent, 2021

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
4. Adabiy turlar va janrlar. (Tarixi va nazariyasiga doir) 3 tomlik. T.1., 2-T.: Fan, 1991, 1992
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. T.: O'zbekiston, 2002
6. Umurov N. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T.: Sharq, 2002
7. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. T.: O'qituvchi, 1995

Scopusdan maqolalar

1. Oydin Turdiyeva, Kabirova Nargiza, Akmalxon Akmalxonov. (2023). Ideological and aesthetic features of modern iranian short story. The Second Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies. Elsevier/Scopus. 128, 133. <https://spast.org/techrep/article/view/5025>
2. Esfehani L.S. Cognitive poetics as a literary theory for analyzing Khayyam's poetry // Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 32, 2012, Pages 314-320. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.01.046>.
3. Lacey Okonski, Journal of Pragmatics, Volume 211, 2023, Pages 27-30, ISSN 0378-2166, <https://doi.org/10.1016/j.pragma.2023.03.012>.
4. Stefan Blohm, Valentin Wagner, Matthias Schlesewsky, Winfried Menninghaus, Sentence judgments and the grammar of poetry: Linking linguistic structure and poetic effect, Poetics, Volume 69, 2018, Pages 41-56, ISSN 0304-422X, <https://doi.org/10.1016/j.poetic.2018.04.005>.

Axborot manbalari

	<p>2. www.gov.uz 3. www.lex.uz 4. http://www.afghanistan-analysts.org 5. http://www.ariananews.af 6. http://www.aopnews.com 7. https://www.thekabultimes.gov.af/ www.ppazhwak.hozhaber.com</p>
7	<p>O'quv dasturi Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025-yil "20" 06 dagi 20 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil "28" 06 dagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8	<p>Fan/modul uchun mas'ullar: O.Z.Turdiyeva – TDSHU Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi dotsenti, f.f.d.</p> <p>D.A.Yusupova. – TDSHU Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi o'qituvchisi</p>
9	<p>Taqrizchilar: Imomnazarov M.S. - TDSHU Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi professori, f.f.d. Tilavov A. –A.Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti., PhD</p>